



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**



**BIOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY
YONDOSHUVLARNING DOLZARB
MASALALARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

МАТЕРИАЛЫ
международной научно-практической конференции
**АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННЫХ
ПОДХОДОВ В БИОЛОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЯХ**

MATERIALS
of the international scientific and practical conference
**ACTUAL ISSUES OF MODERN APPROACHES IN
BIOLOGICAL RESEARCH**

**Farg'ona-2024
23-24-may**

Shira bu tekinxo‘r bilan zararlenganda shakli o‘zgarmaydi. Mo‘miyolashgan shirada Praon avlodidagi tekinxo‘rlar hosil qilgan yostiqchalar bularda hosil bo‘lmaydi.

Shunday qilib, vodiy sharoitida mavjud bo‘lgan madaniy senoz shiralarning tabiatdagi miqdoriy zichligini cheklab, boshqarib turishda mahalliy sharoitdagi foydali hasharotlarni tabiiy populyatsiyalaridan biologik agentlar sifatida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Chunki ular o‘simliklarni himoya qilish sohasida bizga tabiiy dastyorlar sifatida beminnat yordam berishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati


1. Alimuhamedov S., Xo‘jaev J. G‘o‘za zararkunandalari va ularga qarshi kurash choralari. T. "O‘zbekiston" nashriyoti. 1979 y. 65-70 b.
2. Axmedov M.X., Zokirov I.I. Iqlimlashtirilgan daraxt va butalar shiralari aniqlagichi. Toshkent, "O‘z NIINTI" 1998 y., 59-bet.
3. Axmedov M.X., Zokirov I.I. Shiralarning etologik munosabatlarini o‘rganish haqida. J. FDU ilmiy xabarlar. Farg‘ona, 2007 y. №4. 17-25 betlar.
4. Ивановская О.М. Тли Западной Сибири. Новосибирск. Из-во. "Наука" 1977 г. ст. 272, ст. 328.
5. Мухаммадиев А.А. Тли Ферганской долины. Ташкент. Из-во. "Фан". 1979. ст. 80.

INTERPOLIMER KOMPLEKSLAR VA KIMYO KORXONALARI IKKILAMCHI MAHSULOTLARI ASOSIDA G‘OVAK MATERIALLAR OLISH

Mirzaraximov A. A., Komilov K. U. - Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish sifati ko‘p hollarda sug‘oriladigan maydonlarning bir xil namlikka ega bo‘lishi bilan baholanadi. Aynan shu masalalarda ham ko‘pgina izlanishlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda suvni bir xil taqsimlab beradigan sug‘orish texnika va texnologiyalari eskirgan.

Biz taklif qilayotgan usulda interpolimer komplekslar (IPK) va kimyo zavodi chiqiti fosfogips (F) asosida olinadigan kimyoviy meiorantlar shunga yo‘naltirilgan. IPK maxsus o‘ziga xos xususiyatga ega, boshqa tashkil etuvchilar bundan mustasnodir. Amaliyotda qo‘llanish sohasining kengayishi, NIPK oldiga yangi modifikatsiyadagi kompozitsiyalar hosil qilish kabi vazifalarini qo‘yadi, bu esa nisbatan taqchil bo‘lmagan komponentlar evaziga amalga oshiriladi. Barcha texnik echimlar va izlanishlar texnologik jarayonlarni jadallashtirish maqsadida, qishloq va suv xo‘jaligi, atrof muhit muhofazasida paydo bo‘layotgan muammolarning oldini olish maqsadida ishlab chiqiladi. NIPK texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari natijalari, to‘ldiruvchi sifatida kimyo sanoati chiqitlaridan foydalanilganda yuqori ko‘rsatkichlarga erishish imkoniyatini beruvchi texnik echim ishlab chiqildi. Buning uchun Olmaliq kimyo zavodi chiqiti - fosfogipsdan foydalanildi. Bunda ikki xil masala echilishi ko‘zda tutiladi: -turli tuzilishga ega polimerlarni yaratish; -IPKlardan tomchilatib sug‘orishda politilen trubalarning o‘rmini bosuvchi yangi texnologiyalarni ishlab chiqishi.



Muhandislik tadqiqotlari va ularning tahlillari natijalaridan olingan g‘ovakli kompozitsion materiallarning samaradorligiga ta‘sir qiluvchi asosiy omillar aniqlandi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Dispers muhit xususiyatlari va komplektlashtiruvchi komponentlar munosabati o‘zaro bog‘liqdir. Komponentlar ratsional tanlanganda (to‘ldiruvchining aniq mineral tarkibini hisobga

olgan holda) stexometrikg qaraganda ancha samarali komponentlar munosabati kelib chiqadi. Bu real muhitda vujudga kelgan maksimal yarim kompleks miqdoriga (yoki interpolimer kompleks yig'indisiga) mos keladi.

2. Interpolimer komplekslarga to'ldiruvchilarni qo'shish (F) va NIPK ni tayyorlash tartibi aniqlandi. Bunda alohida komponentlarning qo'shish vaqti, oraliq intervalini qisqartirish, lekin o'rta va birinchi komponent aloqasini kerakli minimal oraliqda ushlab turilsa, maksimal samaraga erishilishi ko'zda tutiladi. Bunga bir qator aniq mineral muhitga ega bo'lish uchun, ko'proq samarali natijaga, suvli eritmaga bir vaqtda qo'shilgan komplementar komponentlar orqali erishiladi.

Olinayotgan KM xossalarini boshqarish uchun quyidagi: - chiziqli polimer-polimer; - chiziqli polimer-kompakt zarrachalar IPK foydalanish tavsiya etiladi. Ikkinchi komponent ikki xil ko'rinishda foydalaniladi: qum va F hisobidandir.

Ishlab chiqilgan g'ovakli kompozitsiyalar quyidagi muammoli vazifalarni echish imkonini beradi: - tuproq yuzida, yoki tuproq asosli er inshootlarida, zovur yoki sug'orish kanali, transheyalar va shu kabilarda plyonka xilidagi izolyasiya qoplamasini, shuningdek filtratsiyaga qarshi ekran hosil qilish; - yo'llarda qumdan himoyalash qoplamasi, karerlarda, qazimalarda, qum barxanlarining harakatini kamaytirish, tuproqning suv va shamol erroziyasiga qarshi kurashni hosil qilish; - tomchilatib sug'orishda g'alvirli materiallarni yaratish.

SHunday qilib, kompozitsiion materiallarning yangi tipi ishlab chiqildi. Amaliyotda IPK va to'ldiruvchilar(qum va F)dan murakkab strukturalar vujudga kelishi nazariy jihatdan isbotlandi.

Ushbu IPK va u asosidagi KMDan hozirgi bozor iqtisodi davrida, suvdan foydalanishning nisbatan arzon va tejamkor usullarida qo'llash orqali foydalanib kerakli samaraga erishsak bo'ladi. Misol uchun eng oddiy sug'orish usuli hisoblanadigan er ustidan egatlab sug'orishda, er ostiga egat uzunligining ma'lum qismigacha ekran yotqizib shimilishga qarshi ekran hosil qilib sug'orish me'yorini kamaytirsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Agar egat nishabligi bo'yicha berilayotgan suvni shu tarzda tejash imkoniyati hosil qilinsa, bunga qo'shimcha ravishda tuproqning namlanish epyurasini boshqarishga ya'ni kerakli chuqurlikgacha bo'lgan masofada ushlab qolinishiga keng imkoniyat yaratiladi. Bu usulning avfzalligiga keladigan bo'lsak, chet elda foydalanilayotgan tomchilatib yoki yomg'irilatib sug'orish usullariga nisbatan arzon va tashkil etuvchi elementlarining nisbatan Respublikamiz kiyozavodlarida ishlab chiqilishidir.

Adabiyotlar

1. Kurbanova A.J., Akhmedov A.M., Komilov K.U. Obtaining composite materials based on polymer-polymer complexes // Bulletin NamGU. No. 3. 2019.36-40
2. Kurbanova A.Dj., Komilov Q.U., Mukhamedov G.I., Niyazov Kh.A. Interpolymeric complex for protection of the biosphere and spare water resources// Journal of Critical Reviews, V.7, issue 2, 2020, P. 230-233
3. Kurbanova A.J., Eshmatov A. M., Komilov K. U., Mukhamedov G. I. Application of interpolymer complexes to improve the agrophysical properties of soils // Journal of Universum: technical sciences. No. 5 (86). 44-47

| | |
|---|-----|
| <i>Shermatov M.R.</i> AGROBIOTSENOZLARDA TANGACHAQANOTLI HASHAROTLARNING (INSECTA: LEPIDOPTERA) XILMA-XILLIK KO‘RSATKICHLARI TAHLILI | 236 |
| <i>Shermatov M.R.</i> FARG‘ONA VODIYSIDA <i>COLIAS ERATE</i> (ESPER, [1805]) KAPALAGINI (LEPIDOPTERA: PIERIDAE) O‘RGANISHGA OID | 239 |
| <i>Sultonov D.</i> O‘ZBEKISTON PO‘STLOQXO‘R QO‘NG‘IZLARINING OZUQA O‘SIMLIK LARI TAHLILI | 241 |
| <i>Tojiyeva F.A.</i> SURXONDARYO VILOYATI URUG‘ MEVALI BOG‘LARINING ASOSIY ZARARKUNANDALARI | 243 |
| <i>Toshmatova Sh.R., Ernazarov Z.M., Mirzaahmedova F.M.</i> O‘SIMLIK SHIRALARINING TABIIY KUSHANDALARI | 245 |
| <i>Mirzaraximov A. A., Komilov K.U.,</i> INTERPOLIMER KOMPLEKSLAR VA KIMYO KORXONALARI IKKILAMCHI MAHSULOTLARI ASOSIDA G‘OVAK MATERIALLAR OLISH | 247 |
| <i>Turayeva Z.R., Xusanova I.M., Umaraliyeva Sh.F.</i> PLECOPTERA TURKUMI FAUNASI VA MORFO-BIOLOGIYASI | 249 |
| <i>Tursunov O.T., Holboev F.R.</i> RODENTIA TURKUMI VAKILLARINING BIOZARALANISHDAGI DARAJASINI KAMAYTIRSH USULLARI | 250 |
| <i>Umarov F.A., Nazarov M.Sh.</i> NORIN DARYOSI IXTIOFAUNASI TAKSONOMIYASINING ZAMONAVIY HOLATI | 254 |
| <i>Umarov F.A., Nazarov M.Sh.</i> NORIN DARYOSIDA UCHROVCHI TURKISTON OQ CHEBAGI (PETROLEUCISCUS SQUALISCULUS) NING AYRIM MORFOBIOLOGIK KO‘RSATKICHLARI | 257 |
| <i>Xabibullayev F.N.</i> ASALARILAR KASALLIKLARINI O‘RGANISH VA ULARNI MUHOFAZA QILISH | 258 |
| <i>Xalimov Sh., Inomov A., Nazirov B., Sheraliyev B.</i> OLTARIQSOY DARYOSIDA TARQALGAN <i>TRIPLOPHYSA FERGANAENSIS</i> NING UZUNLIK VA OG‘IRLIK MUNOSABATLARI | 260 |
| <i>Hamidov A.Q.</i> SOYA O‘SIMLIGIGA IQTISODIY ZARAR KELTIRUVCHI AYRIM TURLAR HAQIDA | 263 |
| <i>Xoliqov M.Y.</i> QUSHLAR XULQ-ATVORIDA O‘RGANISH QOBILIYATI | 265 |
| <i>Xusanov A., Isaqov I., Zokirov K., Sobirov O., Yusupov A., Ibrohimova N., Yuldasheva O., Quranov A.</i> PLANOCOCCUS AVLODI VAKILLARI (HOMOPTERA: PSEUDOCOCCIDAE)NING ZOOGEOGRAFIYASI VA MOLEKULYAR IDENTIFIKATSIYASIGA OID | 267 |
| <i>Xusanov A., Isaqov I., Zokirov K., Sobirov O., Xafiziddinov M.</i> FARG‘ONA VODIYSIDA TARQALGAN UNSIMON QURTLARNING (HOMOPTERA: COCCINEA, PSEUDOCOCCIDAE) TARQALISHIGA OID DASTLABKI MA‘LUMOTLAR (O‘ZBEKISTON) | 270 |
| <i>Yo‘ldashev Sh.B., Zokirova G.M.</i> YOZYOVON TABIAT YODGORLIGIDA QAYD ETILGAN <i>COLUBRIFORMES INFRATURKUMI</i> (GUNTER, 1864) (REPTILIA: SERPENTES) VAKILLARINING TAKSONOMIYASI VA MORFOBIOLOGIYASI | 273 |
| <i>Yo‘ldashev Sh.B., Zokirova G.M.</i> YOZYOVON TABIAT YODGORLIGIDA UCHROVCHI ERYX (DAUDIN, 1803) (SERPENTES: BOIDAE) URUG‘INING TAKSONOMIK HOLATI VA MORFOBIOLOGIYASI | 276 |
| <i>Yoqubov A., Zokirov I.</i> KUZGI TUNLAM (<i>AGROTIS SEGETUM</i> (DENIS & SCHIFFERMÜLLER, 1775)NING FARG‘ONA VILOYATIDA TARQALISHIGA OID MA‘LUMOTLAR | 277 |
| <i>Yuldasheva Sh.Q.</i> PARAZIT ENTOMOFAGLARNING QO‘SHIMCHA OZIQLANISH XUSUSIYATLARI | 280 |